3

Bob

PEDAGOGLAR FAOLIYATINI BOSHQARISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH

3.1. Pedagogning hujjat yuklamasini kamaytirish

3.2. Olis va chekka hududga borib ishlaydigan o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash

3.3. Raqamli ta’lim resurslari: o‘qituvchi uchun amaliy kutubxona



3.1. PEDAGOGNING HUJJAT YUKLAMASINI KAMAYTIRISH

Pedagogning asosiy vazifasi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishdir. Shu sababli maktab rahbari pedagogdan qonunchilik va tasdiqlangan idoraviy hujjatlarda nazarda tutilmagan qo‘shimcha hisobot, ma’lumotnoma yoki takroriy hujjatlarni talab qilmasligi lozim.

Pedagogning ortiqcha hujjat yuklamasini kamaytirish zamonaviy maktab boshqaruvining muhim vazifasidir. O‘qituvchining asosiy vaqti ta’lim-tarbiya jarayoniga, o‘quvchilar bilan ishlashga va dars sifatini oshirishga yo‘naltirilishi lozim.

Qonunda pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek unga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilish;

pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish;

pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to‘lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta’minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish taqiqlanadi.

Pedagogni uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarga (saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida ishtirok etishga, test sinovlarida auditoriya nazoratchisi vazifasini bajarish, aholini ro‘yxatga olish ishlarida ko‘maklashishga, ta’lim tashkilotlarini tekshirish hamda attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarida ekspert sifatida ishtirok etishga va boshqalarga) jalb qilish uning roziligiga ko‘ra, u bilan tuzilgan shartnomaga asosan, qo‘shimcha haq to‘lash evaziga, ishdan bo‘sh vaqtida yoki ish joyi bo‘yicha o‘rtacha ish haqi saqlangan holda amalga oshiriladi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni 01.02.2024-yildagi O‘RQ-901-son, 5-modda

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining dars va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar bo‘yicha hisobotlar va qo‘shimcha ma’lumotlarni talab qilish qat’iyan taqiqlanadi.

O‘quv-tarbiya jarayoniga oid yillik ish reja asosida pedagog xodim tomonidan o‘quv yili boshlanishidan oldin taqvim-mavzuiy reja tuziladi. Dars mashg‘ulotlari taqvim-mavzuiy rejaga asosan olib boriladi.

PEDAGOG TAYYORLASHI SHART BO‘LGAN ASOSIY HUJJATLAR

- Taqvim-mavzuiy reja (fan bo‘yicha);
- Sinf jurnali (bosma yoki elektron);
- Tarbiyaviy ishlar rejasi (sinf rahbarlari uchun).

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining qarori, 2018-yil 27-iyul, 19-q/q-son. 2018-yil 20-avgustda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3058.

Muhim

Maktab rahbarlari pedagoglarga qonunchilikda belgilanmagan qo‘shimcha hisobot, ma’lumotnoma va hujjatlar tayyorlash vazifalarini yuklashdan tiyilishi kerak. Ortiqcha hujjat yuklama pedagogning asosiy faoliyati – ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy tavsiya

Raqamli texnologiyalardan foydalanish (elektron jurnal, onlayn hisobotlar, avtomatlashtirilgan tizimlar) hujjat yuklamasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Direktor maktabda raqamli hujjat aylanish tizimini bosqichma-bosqich joriy etishi maqsadga muvofiq.

3.2. OLIS VA CHEKKA HUDUDGA BORIB ISHLAYDIGAN O‘QITUVCHILARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Respublikamizning tog‘li, chekka va olis tumanlarida joylashgan umumta’lim maktablari malakali pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlanmaganligi sababli davlat bunday hududlarga ishga borgan o‘qituvchilarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etgan. Direktor uchun bu — nafaqat kadrlar muammosini hal etish, balki yangi o‘qituvchini jamoaga moslashtirish va uzoq muddat ishlashini ta’minlash vositasidir.

Olis hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning oylik ish haqiga ish staji uchun maxsus ustamalar berilishi;

joylarda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni chekka hududlarda joylashgan, pedagog kadrlarga ehtiyoj mavjud bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb etish, yosh mutaxassislarga faoliyat yuritish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ta’lim sifatini yaxshilash choralarini ko‘rish.

Olis hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkalariga ish stajidan kelib chiqib belgilanadigan maxsus ustamalar:

- 6 oydan 3 yilgacha — 10%
- 3 yildan 5 yilgacha — 20%
- 5 yildan 10 yilgacha — 30%
- 10 yildan 15 yilgacha — 40%
- 15 yildan ortiq — 50%

Normativ asos

O‘zbekistonRespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Olis hududlarda joylashgan umumiy o‘rtata’limmuassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 471-son qaror

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda dars berish uchun boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga maxsus ustamalar joriy qilinsin. Bunda:

- O‘zi ishlayotgan tumandan boshqa tumandan kelgan bo‘lsa - asosiy tarif stavkasiga 50 foiz ustama;
- O‘zi ishlayotgan viloyatdan boshqa viloyat/hududdan kelgan bo‘lsa - asosiy tarif stavkasiga 100 foiz ustama.

ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda dars berish uchun boshqa hududda kamida bir yil ishlagan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglar jalb qilinadi;

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2021-yil 11-yanvardagi “Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4940-son qarori

Eslatma

Ustama miqdori o‘qituvchining uyi maktabgacha qancha masofada ekanligiga bog‘liq emas - asosiy mezon hudud rasman “olis/chekka” deb tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan-kiritilmaganligi va o‘qituvchi boshqa ma’muriy hududdan kelganligidir.

Direktor uchun muhim

Maktabingiz rasman “olis/chekka hudud” ro‘yxatiga kiritilgan-kiritilmaganini (Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-yanvardagi 19-son qarori) aniqlang - ustama faqat ro‘yxatdagi maktablar uchun amal qiladi. Direktor hujjatlarni rasmiylashtirishda vazirlar mahkamasining 471-son va 646-son qarorlari hamda PQ-4940-son qarorlari talablarini alohida qo‘llaydi

3.3. RAQAMLI TA’LIM RESURSLARI: O‘QITUVCHI UCHUN AMALIY KUTUBXONA

Raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir. Elektron darsliklar, videodarslar, virtual laboratoriyalar, interfaol topshiriqlar va onlayn platformalar darsni ko‘rgazmali, qiziqarli va natijador tashkil etishga xizmat qiladi.

Elektron resurslar – bu multimedia vositalari, videodarslar, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari va boshqa raqamli materiallar majmuasidir. Ular o‘quv jarayonini vizuallashtirish, murakkab jarayonlarni modellashtirish va o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega.

O‘quv-metodik majmua va elektron resurslar haqidagi ma’lumotlarni bilgan holda ulardan samarali foydalanish uchun fanga tegishli bo‘lganlarni o‘rganish, tahlil qilish va keraklilarini ajratib olish hamda dars jarayonlarida samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi dars jarayonlarda foydalanish uchun quyidagi qulayliklarni tug‘diradi.

1. Dars tayyorlashda vaqtni tejaydi, muammoli masalalarni oldindan ko‘rsatadi
2. Darsni to‘g‘ri rejalashtiradi, har bir mavzuda nimani o‘rgatish kerakligi aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi.
3. O‘qituvchining ishonchini oshiradi, u darsni “sinfga kirib o‘ylash” emas, balki “reja asosida tashkil qilish” yo‘lini ko‘rsatadi.
4. Darslar ijodiy va jonli bo‘lishi, o‘quvchi darsda mavzuni eslab qolishi, faol ishtirok etishi va amaliyotda qo‘llashi uchun imkoniyat yaratiladi.

ASOSIY RAQAMLI PLATFORMALAR

📌 **Emaktab.uz** - elektron jurnal va kundalik tizimi. O‘quvchilarning davomati, baholari va uy vazifalarini onlayn kuzatish imkonini beradi;

📌 **Ziyonet.uz** – ta’lim resurslari portali. O‘quv materiallari, elektron darsliklar va ilmiy maqolalar joylashtirilgan;

📌 **Pedagog.uz** - pedagoglar uchun uslubiy portal. Metodik tavsiyalar, ochiq darslar namunalari va tajriba almashish platformasi;

📌 **Maktab.uz** - maktablarning rasmiy veb-saytlari platformasi.

📌 **https://raqamlitalim.trm.uz/**- Yagona raqamli ta’lim resurslari va xizmatlari portali”

O‘zbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish, ta’limga oid raqamli resurslar va interfaol xizmatlardan yagona nuqtadan turib foydalanish, bu orqali ta’lim ishtirokchilariga qulaylik yaratish maqsadida Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan “Yagona raqamli ta’lim resurslari va xizmatlari portali” ishlab chiqilgan.

- Raqamli ta’lim resurslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.
- Interfaol ta’lim resurslari va multimedia vositalari
- Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar
- STEM ta’limi bo‘yicha raqamli resurslar
- Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha raqamli resurslar
- Inklyuziv ta’limga oid resurslar
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun raqamli resurslar
- Ta’lim ishtirokchilari uchun interfaol kurslar
- Psixologik yordam platformasi
- Pedagoglarni kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga oid resurslar



“Interfaol ta’lim resurslari va multimedia vositalari” bo‘limi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sinflari, fanlari va mavzulari kesimida raqamli ta’lim resurslarini bir nuqtadan foydalanish imkonini taqdim etadi. Unda har bir fanning mavzuga oid metodik jihatdan ishlab chiqilgan video darslar, interfaol topshiriqlar, ta’lim o‘yinlari, virtual laboratoriya ishlari, uslubiy qo‘llanma va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi boshqa o‘quv materiallari joylashtirilgan.

“Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar” bo‘limi umumta’lim maktablarining 7-11-sinflar uchun tabiiy fanlar, jumladan Fizika, Kimyo, Biologiya va Geografiya fanlari bo‘yicha virtual laboratoriya, simulyatsiya va boshqa interfaol ta’lim resurslarni mavzular kesimida mavjud.

“STEM ta’limi bo‘yicha raqamli resurslar” bo‘limi STEM fanlariga (fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga) oid zamonaviy raqamli resurslar o‘quvchilarga kerakli bilim va ko‘nikmalarni raqamli shaklda taqdim etishga qaratilgan. Platformada foydalanuvchilar uchun STEM mashg‘ulotlarini tashkil etishga ko‘maklashadigan multimediali va interfaol resurslar joylashtirilgan. Platforma asosan STEM yo‘nalishlariga qiziqishni oshirish, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan.

“Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha raqamli resurslar” bo‘limi PISA, PIRLS, TALIS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradigan keng qamrovli resurslarni taqdim etadi. Ushbu bo‘limda qo‘llanmalar, test materiallari, amaliy mashg‘ulotlar va videodarsliklar joylashtirilgan. Mazkur raqamli resurslar o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga va o‘qituvchilarning xalqaro baholash dasturlariga samarali tayyorlov jarayonlarini tashkil etishiga xizmat qiladi. Platformada har bir dasturga mos metodik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan resurslar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, o‘qituvchilarga metodik yordam berish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qancha bo‘limlar mavjud. Jumladan, ta’limga oid me’yoriy hujjatlar, raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha interfaol kurslar, yosh olimlar va tadqiqotchilar maktabi,

inklyuziv ta’limga oid resurslar, o‘quv uslubiy qo‘llanmalar va tavsiyalar, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va yordamchi ilovalar, psixologik qo‘llab-quvvatlashga doir oid resurslar, pedagoglarni kasbiy rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va h.k. bo‘limlar mavjud. Ushbu ta’lim portalidan foydalangan holda har tomonlama o‘zingizning kompetentlik darajangizni oshirishingiz va dars jarayonlarini qiziqarli olib borishga imkoniyatga ega bo‘lasiz.

Direktor uchun muhim

Maktabingiz pedagoglarini “Yagona raqamli ta’lim resurslari va xizmatlari portali” (raqamlitalim.trm.uz) bilan tanishtiring va undan dars jarayonlarida muntazam foydalanishni rag‘batlantiring.

Amaliy tavsiya

Maktabingizda bir o‘qituvchini “raqamli resurslar bo‘yicha mas’ul” etib belgilang. U portaldagi yangiliklarni kuzatib boradi, hamkasblariga qisqa amaliy ko‘rsatma (mini-trening) o‘tkazadi hamda raqamli resurslardan real foydalanish darajasini sezilarli oshiradi.

